


Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz tumaniga tashrifining keyingi manzilida “At-Termiziy” mahallasi hududida joylashgan 22-sonli maktabda olib borilayotgan rekonstruktsiya ishlari bilan tanishdi.



Maktab binosini rekonstruktsiya qilish loyihasi viloyatdagi 62 ta og'ir sharoitdagi maktablarni ta'mirlash dasturi asosida amalga oshirilayotgan bo'lib, loyiha qiymati 1 mlrd 68 mln so'mni tashkil etadi.

Viloyat rahbari quruvchi tashkilot vakillari hamda maktab mas'ullari bilan suhbatlashdi. Tuman mutasaddilariga ishlarni sifatli amalga oshirish ustidan doimiy nazorat o'rnatish, loyihani yangi o'quv yili boshlangunga qadar yakunlash topshirig'i berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)